

6-MAY

2023



Toshkent tibbiyot  
akademiyasi



O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirligi

## ZAMONAVIY PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIKADA FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRASIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed



Toshkent tibbiyot akademiyasi

[www.tma.uz](http://www.tma.uz)

O'zbekiston Respublikasi  
Sog'liqni saqlash vazirligi

[www.ssv.uz](http://www.ssv.uz)

Mazkur to‘plamda Toshkent tibbiyot akademiyasining “Zamonaviy psixologiya, pedagogikada fan, ta’lim va amaliyot integrasiysi: muammo va yechimlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifatiga muallif(lar) javobgar hisoblanadi.

**Toshkent - 2023**

**CONTENTS**

**MUNDARIJA**

- 13.** Abdullayeva, A. R. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH (PEDAGOGIK AMALIYOT YORDAMIDA). *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 62-68.
- 14.** Abdunazarova, Z. A. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 69-72.
- 15.** Abrayeva, S. E. (2023). DEVELOPMENTAL EVOLUTION OF LATIN AND GREEK LANGUAGES. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 73-75.
- 16.** Abrayeva, S. E. (2023). LOTIN TILINING TIBBIYOT BILAN ALOQASI VA MADANIYATI. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 76-79.
- 17.** Achilov, M. N. (2023). FONETIK SO'Z YASALISHI IBORA VA O'XSHATISHLARDA. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 80-83.
- 18.** Ачилов, М. Н. (2023). СЛОВООБРАЗОВАНИЕ В ЛАТИНСКОМ ЯЗЫКЕ. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 84-87.
- 19.** Adizova, O. I. (2023). A LOOK AT FOLKLORE. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 88-91.
- 20.** Anorboev, B. D. (2023). O'QUVCHILARNING FUTBOL BO'YICHA TEXNIK-TAKTIK TAYYORGARLIK TOMONLARINI O'RGANISH MUAMMOLARI. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 92-95.
- 21.** Asadullayev, N. R. (2023). ZAMONAVIY REKLAMA KOMPANIYASINING MAQSADLI AUDITORIYASI. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 96-100.
- 22.** Asatova, B. F. (2023). BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TA'LIM VA TARBIYA OLISHIDA EKSKURSIYANING O'RNI. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 101-105.
- 23.** Ashirova, S. B. (2023). BOLA FAOLIYATIDA POZITIV-KOMUNIKATIV SIFATLAR TUSHUNCHASINING MOHIYATI. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 106-110.
- 24.** Ataxo'jayeva, S. A. (2023). O'QITUVCHILARINING SOTSIOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI. *Integration of Science, Education and Practice in Modern Psychology and Pedagogy: Problems and Solutions*, 4(1), 111-115.

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING TA'LIM VA TARBIYA OLISHIDA ESKURSIYANING O'RNI

**Barfiya Faxridinovna Asatova**

Buxoro davlat universiteti Pedagogik ta'lism fakulteti  
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasi stajyor-tatqiqotchisi  
[barfiya.asatova@mail.ru](mailto:barfiya.asatova@mail.ru)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining sinfdan tashqari tashkil etilgan ekskursiyalarni tashkil etish, o'quvchilar ta'lism va tarbiya olishida ekskursiyalarning o'rni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, har bir fanni mustahkamlash uchun ekskursiyalar tashkil etish mumkinligi haqida, bunday ekskursiyalardan kutilayotgan natijalar haqida mushohada yuritilgan. O'quvchilarni Vatanga muhabbat, uning meroslarini qadrlash, uni asrab-avaylash, ekologik ta'limga boyitib borish, tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, ishchilar mehnatini qadrlash kabi bilim va tarbiyani to'g'ri tashkil etilgan ekskursiyalar orqali singdirish mumkinligi haqidagi xulosalar chiqarilgan.

**Kalit so'zlar:** ekskursiya, ta'lim, tarbiya, natija, fan, tabiat, boshlang'ich sinf, maqsad, mashg'ulot.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается организация внеклассных экскурсий для учащихся начальных классов, роль экскурсий в воспитании и обучении учащихся. Также было замечено, что можно организовать экскурсии для закрепления каждого предмета, и об ожидаемых результатах таких экскурсий. Сделаны выводы о возможности привития таких знаний и воспитания, как любовь к Родине, уважение к ее наследию, его сохранение, обогащение экологического образования, рациональное использование природных ресурсов, оценка труда трудящихся посредством правильно организованных экскурсий.

**Ключевые слова:** экскурсия, образование, воспитание, результат, наука, природа, начальная школа, цель, обучение.

## ABSTRACT

This article discusses the organization of out-of-class excursions for elementary school students, the role of excursions in the education and training of students. Also, it was observed that it is possible to organize excursions to strengthen each subject, and about the expected results of such excursions. Conclusions were made that it is possible to inculcate knowledge and education such as love for the Motherland, appreciation of its heritage, preservation of it, enrichment of environmental education, rational use of natural resources, appreciation of workers' work through properly organized excursions.

**Keywords:** excursion, education, upbringing, result, science, nature, elementary chool, purpose, training.

**Kirish.** Insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida ta'lim va pedagogik amaliyotda muhim yo'nalishlardan biri - ona zaminning tabiiy boyliklariga munosabat, hurmat, o'simlik va hayvon olami, tabiiy muhitni himoya qilish va to'ldirish hissi yosh avlodni to'g'ri, mas'uliyatli shakllantirishni o'zida aks ettiradi. Insonlarni bolalikdan tabiat holati uchun javobgarlik, tabiatdagi muammolarni hal qilish uchun mas'uliyatli qilib tarbiyalash lozim.

Ekologik ta'larning uzlusiz jarayonida asosiylaridan biri bu boshlang'ich mактабга tegishli bo'lib, unda kichik yoshdagи o'quvchilar tabiiy va ijtimoiy muhit haqidagi bilimlar bilan boyitiladi, dunyoning yaxlit tasvirini o'rganadilar, axloqiy va estetik munosabatni shakllantiradilar.

Samarali ta'lim, tarbiya va rivojlanish uchun sezgir davr - bu boshlang'ich mактаб yoshi hisoblanadi. Rivojlanishning ushbu davrida tengdoshlari bilan munosabat, atrof-muhitni sinchkovlik bilan o'rganish, kattalar xatti-harakatiga qiziqish, xulq-atvorlari rivojlna boshlaydi.

Ayniqsa, bu rivojlanish davrida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faollik yorqin namoyon bo'ladi. Bolaning shaxsiyati yangi maqomga ega bo'ladi, yangi ijtimoiy rol - mактаб o'quvchisi, ya'ni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan pedagogik faoliyatning ishtirokchisiga aylanadi.

O'qituvchilar va ota-onalar boshlang'ich mактаб yoshidagi bolalarning bunday psixologik jihatdan farqlanishini hisobga olishlari kerak.

**Asosiy qism.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari ishlар orqali tarbiya berishda ekskursiyaning roli katta hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim mактablarida ekskursiyalar davomiyligiga ko'ra, bir

soatlik, birkunlik va ko'p kunlik bo'lishi mumkin. Bir soatga mo'ljallangan ekskursiya – geografiya maydonchasida yoki o'quv tajriba yer maydonchasida o'tkaziladi. Bir kunga mo'ljallangan ekskursiyani – tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, fermer xo'jaliklariga, hayvonot yoki botanika bog'iga tashkil etish mumkin. Ekskursiya insonning dunyoqarashini kengaytirish usulidir. Ushbu tadbirda ishtirok etishdan maqsad ma'lum bir mavzu, joy yoki voqeа haqida bilim olishdir. Ayniqla boshlang'ich sinf o'quvchilarining vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har doim mакtabning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan, chunki bolalik va yoshlik Vatanga muhabbatning muqaddas tuyg'usini singdirish uchun eng qulay davrdir. Maktab o'quvchilarida o'z Vatani, o'z xalqi bilan faxrlanish, uning erishgan ulkan yutuqlari, o'tmishning munosib sahifalariga hurmat tuyg'ularini shakllantirish zarur. Ekskursiya turizmi o'quvchilarining bilish faoliyatini faollashtiruvchi, ularni mustaqil ijodiy faoliyatga undaydigan, tashabbuskorlikni tarbiyalovchi, o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi samarali vositadir. Tashqi dunyoga yo'naltirilganlik, atrofdagi dunyonи amaliy bilish boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda qiziquvchanlik kabi sifat xususiyatlarini shakllantirishga yordam beradi deya bemalol aytا olamiz. Har bir ekskursiya samaradorligi nafaqat tanlangan ob'yekt, gid bilimiga, balkim ekskursiyani olib borish texnikasiga ham bog'liq. Ekskursiya jarayonidagi tartib, materiallarni qabul qilish uchun yaratilgan sharoitlar aynan texnikaga bog'liq.

Olimlarning keyingi yillarda olib borgan tadqiqotlari ekskursiyalar bolalarning har tomonlama dunyoqarashi kengaytirishda, xulosalar chiqarishda, atrof – muhit bilan yaqindan tanishishga yordam beradi. Tabiatning ko'p qirrali olami maktab o'quvchilarida qiziqish uyg'otadi va ajablantiradi. B. A. Suxomlinskiy ta'kidlaganidek, "Tabiatning ochilgan siriga chin dildan hayratlanish, - fikrning tez oqimi uchun kuchli turtki". Bolaning qiziquvchanligi, uning qiziquvchanligi kognitiv savollarda namoyon bo'ladi, bu unga atrofdagi dunyoda harakat qilish, mavjud aloqalar va bog'liqliklarni aniqlashga yordam beradi. Shuning uchun o'qituvchilar bolalar faoliyatini yo'naltirib, ularning bilim faolligini, savollarning paydo bo'lishini, ularga javob topishga intilishlarini rag'batlantirishlari, tabiatga, uning bilimlariga bo'lgan qiziqishlarini mustahkamlash va chuqurlashtirishga harakat qilishlari kerak.

Ekskursiyalar nafaqat tabiatshunoslik darslarini mustahkamlash uchun tashkil etiladi, balki boshqa fanlarni yanada chuqurroq egallahsga yordam beradi. Masalan, matematika fani o'qituvchisi tashkil etgan ekskursiyalardan maqsad: tabiatda ko'rilgan har bir ob'yekt, voqeа hodisalar

matematik nuqtai nazardan analiz qilinadi, tabiatdagi ko'z bilan ko'rilgan narsalar ishtirokida misol va masalalar tuziladi. Ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilar masala tuzishda tabiatdagi voqea, hodisalar, buyumlar, o'simlik va hayvonlar haqidagi masalalarni tuzishda ekskursiya taassurotlari asosida tuzilib muhokoma qilinsa, unga yechim ham osonroq topiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida tashkil etilgan sinfdan tashqari ekskursiyalar natijasida o'quvchilarning dunyoqarashi kengayadi, nutqi rivojlanadi, tasavvuri kengayadi. Tashkil etilgan samarali ekskursiyadan so'ng dars mashg'ulotlarida ekskursiyadan olgan taassurotini yozib berish so'ralganda o'quvchi bir emas, bir necha sahifadan iborat mazmunli taassurot yozadi. Tajriba sifatida o'qituvchi doskaga Buxoro shahridagi Labi-hovuz ansablini rasmini ilsada, ijodiy ish yozishni topshirsa, o'quvchi 4-5 ta gap bilan rasmni tasvirlab beradi. Agar o'qituvchi o'quvchilarni bir kunlik shu ansamblga ekskursiya tashkil etsa, o'quvchi o'z ko'zi bilan ko'rgan go'zallikni, atrofdagi madrasayu binolar, Nasriddin Afandi haykali, hovuz atrofidagi turistlarga tasvirlab ilhomlanib ijod qiladi.

Boshlang'ich sinflarda tarbiya fanini mustahkamlashda sinfdan tashqari tashkil etilgan ekskursiyalar katta ahamiyatga ega. Har qanday maqsadda tashkil etilgan ekskursiyalar avvalo intizom, axloq-odob me'yorlariga rioya qilingan holda tashkil etilishi lozim. Maktabdan chiqishdan boshlab, avtobusda o'zini tutish, diqqatga sazovor joylarni toza tutish, hayvonot va o'simliklarga zarar yetkazmaslik, sayohat uyuştirilgan hududlarga chiqindilar tashlamaslik, tabiatni muhofaza qilish uchun oqilona xulosalar chiqarish kabi hatti xarakatlar bolalarning nechog'li tarbiyalı ekanligini ko'rsatadi.

Texnologiya darslarida tashkil etilgan ekskursiyalar ishlab chiqarish korxonlariga, turli kasb egalari ishlaydigan muassasalarga tashkil etish mumkin. Bunda o'quvchilar og'ir mehnat qilayotgan ishchilarni ko'rib, ularning mehnatlarini qadrlaydigan bo'lishadi. Turli kasb egalari bilan tanishib ularning kasblariga mehr uyg'onib, kelajakdagagi kasbini tanlay boshlashadi.

**Xulosa.** Kaykovusning "Qobusnoma" asarida "Farzandga adab, hunar o'rgatmakni meros deb bilg'il. Agar sen xoh unga adab o'rgatg'il, xoh o'rgatmag'il turmush mashaqqatlarining o'zi unga o'rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-onha tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur". Shunday ekan farzandni odob-axloqli, Vatanga muhabbat, uning merosiga g'amxo'rlik, atrof-muhitni asrab avaylaydigan komil inson qilib tarbiyalash darkor. Toki ularni ko'chadagi yod g'oyalar qamrab olmasin. Ta'lim beruvchilar ham

darslarni an'anaviy usulda emas, ko'proq tabiatga ekskursiyalar tashkil etib, o'quvchilarning olayotgan bilimlarini hayot bilan bog'lab, ijobjiy xulosalar chiqara oladigan odob-axloqli, ko'ngli mehrga to'la yosh avlodni tarbiyalashga qo'lidan kelgancha astoydil mehnat qilishi lozim.

#### **REFERENCES**

1. Adizov B. R., Khamroev A. R. Modeling activities of teachers when designing creative activities of students //Ilmiy xabarnoma. – C. 69.
2. . Ta'lim taraqqiyoti. Boshlang'ich ta'lim, «Sharq» 1999-yil, 7-maxsus son.
3. Rustam Jo'raqulov. Boshlang'ich ta'limning bugungi kundagi dolzarb muammolari. Ta'lim va taraqqiyot. 25.06.2016
4. Ознакомление с окружающим миром. Природоведение: Методика преподавания в начальной школе: учебное пособие для студентов средних и высших педагогических учебных заведений. Москва: Академия, 1999.
5. S.Dolimov, U.Dolimov Kaykovus unsurulmaoniy qobusnomalari T.: "Istiqlol" 1994y